

BOSH MAQSAD – QULAY VA SHAFFOF DAVLAT XIZMATLARINI KO‘RSATISH

Umarov Hikmatillo Ahadovich

Boysun tuman adliya bo‘limi

Dalat xizmatlari markazi bosh mutaxassisi.

Annotatsiya: Adliya tizimidagi islohotlarning asosiy maqsadi – qabul qilinayotgan qarorlarning samarali amalga oshirilishini ta’minlash va xalqchil, ixcham, zamonaviy, aholi uchun qulay tizim yaratishdan iborat.

Kalit so‘zlar: eksterritorial, elektron hukumat, elektron apostil.

Aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimining sifat jihatidan yangi darajaga o‘tishini ta’minlash maqsadida 2017 yilda har bir tuman va shaharda Davlat xizmatlari markazlari ish boshladi.

Bu markazlar orqali ko‘rsatilayotgan xizmat turlari to‘rt yil davomida 4,5 barobar ortib, 37 tadan 253 taga yetdi. Ushbu xizmatlarning 78 tasi joriy yilda yo‘lga qo‘yildi.

Prezident bu sohani rivojlantirishdan hech qachon to‘xtamasligimiz kerakligi haqida doim ta’kidlab keladi. Davlat xizmatlari markazlari orqali 2018-2022 yillarda jami 60 milliondan ortiq xizmat ko‘rsatildi. Davlat xizmatlari ko‘rsatishda talab etiladigan hujjatlar soni 221 tadan 95 taga (57 foiz) qisqartirildi. Har kuni o‘rtacha 40-45 ming fuqaro davlat xizmatlaridan foydalanmoqda.

Fuqarolar ovoragarchiligining oldini olish maqsadida tuman (shahar) markazidan 50-100 kilometr uzoq hududlarda 138 ta filial faoliyat yuritib kelmoqda. Davlat xizmatlari markazlarining 175 ta zamonaviy binosi foydalanishga topshirildi.

Aholiga davlat xizmatlarining aksariyati hamon an’anaviy shaklda ko‘rsatilmogda. Masalan, 750 ta davlat xizmatidan 325 tasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, shundan 253 tasi Davlat xizmatlari markazlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Davlat xizmatlari markazlari orqali ko'rsatiladigan barcha xizmatlarni «eksterritorial» tamoyil asosida ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Xo'sh, bu aholiga nima beradi? Bunda davlat xizmatlarini ko'rsatish doimiy ro'yxatdan o'tgan joyidan (propiska) yoki yashash joyidan qat'i nazar, aholi va tadbirkorlar o'zlariga qulay joydagi davlat xizmatlari markazlaridan foydalanishi mumkin bo'ladi; litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini belgilab beruvchi Hukumatning 3 ta muhim qarori qabul qilindi. Ushbu 3 ta qaror bilan amaldagi 250 dan ortiq litsenziyalash va ruxsat berish sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar bekor qilindi; «Litsenziya» axborot tizimi yaratilib, 85 dan ortiq litsenziyalashga oid xizmatlar ishga tushirildi, tizim orqali xizmatlar to'liq elektron shaklda ko'rsatilmoqda, vakolati organlar bilan kelishishlar elektron shaklda amalga oshirilmoqda. Ushbu tizim orqali kelib tushgan 51 mingdan ortiq arizalar ko'rib chiqilib, ularning 44 mingdan ortig'i bo'yicha elektron litsenziya va ruxsatnomalar rasmiylashtirib berildi.

Aholining ko'p murojaat qiladigan sohalardan biri kommunal xizmat ko'rsatishdir. Prezidentning 2021 yil 23 martdagi farmoni bilan 18 turdagi hamda 2021 yil 24 iyuldagi farmoni bilan 17 turdagi ma'lumot va hujjatni aholidan talab qilish bekor qilingan edi.

2022 yilning 20 aprel kungi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan 2022 yil 1 iyuldan boshlab kommunal tashkilotlarga ham 35 turdagi hujjatni aholi va tadbirkorlardan talab qilmasdan «Elektron hukumat» tizimidan olishga ruxsat berildi.

Tijorat banklariga, telekommunikatsiya, xususiy tibbiyot, nodavlat ta'lim, sug'urta yo'nalishidagi nodavlat tashkilotlarga ham «Elektron hukumat» tizimi orqali olish mumkin bo'lgan ma'lumotlardan foydalanishga ruxsat berilmoqda. Faqat bu tashkilotlar shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi shart, bu tegishli litsenziya talab va shartlaridan biri hisoblanadi.

Qonun qachon mukammal bo'ladi, qachonki, uni qabul qilishda xalq fikri inobatga olinsa, chunki aholi qonunlar buyurtmachisi hisoblanadi. So'nggi yillarda qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilishda ana shu tamoyil ustuvor mezon etib belgilandi.

Aytish kerakki, so‘nggi yillarda norma ijodkorligi jarayonining takomillashishi va yangi huquqiy institutlarning vujudga kelishi natijasida normativ-huquqiy hujjatlar soni ham ortdi. Norma ijodkorligi jarayoniga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi yanada katta imkoniyatlar yaratmoqda. Hozirgi kunda loyihalarni ishlab chiqish, ularni manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish, jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish hamda ko‘rib chiqish (qabul qilish) uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish to‘liq elektron formatga o‘tkazildi.

Adliya vazirligining tashabbusi bilan hujjatlarga elektron apostil qo‘yish mexanizmi joriy etildi.

Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3 dekabrda 732-sonli qarori bilan **rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish bo‘yicha davlat xizmati ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti** tasdiqlandi va 2022 yilning 1 martidan boshlab jismoniy va yuridik shaxslarga vakolatli davlat organlari tomonidan O‘zbekiston hududida tuzilgan rasmiy hujjatlarga **elektron tarzda «Apostille» maxsus shtampini qo‘yish amaliyotga joriy qilindi.**

Ushbu xizmat bevosita davlat xizmatlari markazlari yoki YaIDXP orqali ko‘rsatiladi. **Apostil bilan** xorijiy rasmiy hujjatlarni legallashtirish talabini bekor qiluvchi konvensiyaning (Gaaga, 1961 yil, 5 oktabr) 5-moddasiga muvofiq, rasmiy hujjatni imzolagan mansabdor shaxsning imzosi haqiqiyliги, imzolash vakolati mavjudligi hamda hujjatni tasdiqlagan muhr yoki shtamp bosma izi haqiqiyliги tasdiqlanadi.

Mazkur ma‘muriy reglamentga ko‘ra, elektron shakldagi yoki hujjatlar nusxasiga apostil olish uchun YaIDXP, Davlat xizmatlari markazlariga yoki tegishli vakolatli organga murojaat qilishi, shuningdek hujjatlarning asl nusxasiga tegishli organning o‘ziga murojaat qilishi hamda xizmat natijasini **ikki kundan o‘n ish kunigacha** olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.12.2021 yildagi “Rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 732-son Qarori